

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdualil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	



# RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH

**Davlatov Ulug'bek Baxodirovich**

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi  
Mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, raqamli platformalar orqali tovar va xizmatlar ayirboshlanishi kengayib, iste'molchilarning iqtisodiy faolligi oshmoqda. Biroq, raqamli bozorlarda algoritmik qarorlar, platformalarning bozor qudrati va transchegaraviy faoliyati bozor ishtirokchilari va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. SHu bois, raqamli bozorlarda bozor ishtirokchilari va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni davlat tomonidan samarali tartibga solish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar:** raqamli bozorlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, bozor ishtirokchilari, iste'molchilar huquqlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, davlat tomonidan tartibga solish, raqobat, raqobat qonunchiligi.

**Abstract :** The rapid development of the digital economy is accompanied by the expansion of the exchange of goods and services through digital platforms, as well as an increase in consumers' economic activity. However, in digital markets, algorithmic decision-making, the market power of platforms, and their cross-border activities create new risks in protecting the rights of market participants and consumers. In this context, the issue of effective state regulation of the protection of the rights of market participants and consumers in digital markets becomes particularly important.

**Keywords:** digital markets, digital platforms, artificial intelligence, market participants, consumer rights, consumer protection, state regulation, competition, competition law.

**АННОТАЦИЯ.** Стремительное развитие цифровой экономики сопровождается расширением обмена товарами и услугами через цифровые платформы, а также ростом экономической активности потребителей. Однако в цифровых рынках алгоритмические решения, рыночная власть платформ и их трансграничная деятельность создают новые риски в сфере защиты прав участников рынка и потребителей. В связи с этим особое значение приобретает вопрос эффективного государственного регулирования защиты прав участников рынка и потребителей на цифровых рынках.

**Ключевые слова:** цифровые рынки, цифровые платформы, искусственный интеллект, участники рынка, права потребителей, защита прав потребителей, государственное регулирование, конкуренция, антимонопольное законодательство.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi global iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanib, O'zbekistonda ham ushbu sohani qo'llab-quvvatlash va tartibga solish masalalarini dolzarb qilib qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini kengaytirish, axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda[1].

Joriy yilning 25-mart sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida o'tkazilgan moliya va raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi tashabbuslar taqdimotida davlatimiz rahbari xalqaro raqamli texnologiyalar markazini tashkil etish masalasiga to'xtalib: "Sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli transformatsiya, tadqiqot va ishlanmalar, sertifikatlashtirish, startaplar hamda ma'lumotlar markazlari ushbu markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilanishini, 2030-yilgacha mazkur markaz orqali 1 mingtagacha kompaniyani jalb qilish, 300 mingdan ziyod ish o'rni yaratish va 5 milliard dollarlik eksport salohiyatiga chiqish maqsadi belgilangani", ta'kidladi[2].

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning obyekti — raqamli iqtisodiyot tizimi va raqamli platformalar faoliyati, predmeti — ularni tartibga solishda qo'llaniladigan regulyativ mexanizmlar hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi esa raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun muvozanatli regulyativ siyosatni shakllantirishning amaliy jihatlarini asoslashdan iborat bo'lib, vazifalari sifatida xalqaro tajribani tahlil qilish, milliy amaliyotni baholash, sohadagi muammolarni aniqlash hamda samarali tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jan Tirole nazariyasiga ko'ra, raqobat siyosatini yuritishda platformalarning bozor ulushi emas, balki ularning ekotizimdagi ta'siri, ma'lumotlarga egalik qilishi va algoritmlar orqali bozorni boshqarishi asosiy mezon sifatida baholanishi lozim. Uning fikricha, raqamli bozorlarda an'anaviy raqobat siyosatini qo'llash yetarli emas. Bu jarayonda tarmoq ta'siri, ma'lumotlar asimmetriyasi va platformalarning ikki tomonlama xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega [3]. Schumpeter (Joseph Schumpeter)ning fikricha, raqobatning asosiy manbai — innovatsiyalar, ya'ni yangi texnologiyalar, biznes modellar va mahsulotlardir. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotda raqamli platformalarning tez rivojlanishi va yangi xizmat turlarining paydo bo'lishi aynan Schumpeter nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [4].

Porterning raqobat nazariyasi asosan "millatlar raqobatbardoshligi" va "Porterning besh kuch modeli" (Porter's Five Forces)ga tayanadi. Uning nazariyasiga ko'ra, bozordagi raqobat darajasi faqat kompaniyalar soniga emas, balki tarmoqqa kirish to'siqlari, mahsulotlar o'rnini bosuvchilar, ta'minlovchilar va iste'molchilarning muzokara kuchiga ham bog'liq [5]. Raqamli bozorlarda ushbu model ayniqsa dolzarb, chunki agregatorlar va marketpleyslar iste'molchi va ta'minlovchilarning munosabatini qayta shakllantirmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada raqamli bozorlarda raqobat siyosatining zamonaviy muammolari va ularni hal etishning samarali yo'llarini aniqlash hamda tahlil qilish jarayonida xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, nazariy xulosalar va amaliy tajribalardan foydalanildi. Shu bilan birga, muallif tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat siyosati mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha mustaqil ilmiy qarashlar ishlab chiqildi. Tadqiqotda mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv va analitik taqqoslash kabi ilmiy usullar qo'llanilib, raqamli bozorlardagi ustun mavqe, ma'lumotlardan foydalanish va bozorga kirish to'siqlarini baholashning ilmiy asoslangan yo'nalishlari aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt yo'nalishlarida global tendensiyalarga mos ravishda yangi texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor davlat siyosati olib borilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniq baholash va raqamlashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi samarali mexanizmlarni joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dunyo bo'ylab hukumatlar raqamli gigantlarni nazorat qilish va adolatli raqobatni tiklash uchun tartibga solish choralari ko'rmoqda. 2022-yilda Yevropa Ittifoqi katta kompaniyalarning bozordagi ustunligidan foydalanishining oldini olishga qaratilgan Raqamli bozorlar to'g'risidagi qonunni qabul qilganidan beri yana 19 ta davlat raqamli raqobat to'g'risida qonunlar qabul qilish bo'yicha choralari ko'rdi. Masalan, Avstraliya 2024-yil oxirida yangi keng ko'lamli rejimni taklif qildi.

Yaponiya ham mobil ekotizimlarda shaffoflikni oshirish va dominantlikni kamaytirishga qaratilgan maqsadli qonunlarni joriy qildi. Shuningdek, Janubiy Afrika raqobat to'g'risidagi qonuniga o'zgartirishlar kiritdi, bu raqamli sektorlarda, jumladan, elektron tijorat, turistik platformalar va oziq-ovqat yetkazib berishda inklyuzivlikni rag'batlantirish va konsentratsiyaga qarshi kurashishga xizmat qiladi. 2020-yildan beri dunyo bo'ylab hukumatlar raqamli bozorlarda raqobatni tiklash uchun ko'rgan choralari soni 14 tadan 2024-yilda 153 tagacha ortdi [6].

Raqamli platformalar iqtisodiyotini rivojlantirish turli segmentlarning xususiyatlarini inobatga oluvchi va faoliyat uchun shaffof qoidalarni ta'minlaydigan muvozanatli tartibga solishni talab qiladi. Bunday tartibga solish mexanizmi mamlakatimizdagi platformalarning raqobatbardoshligini saqlab qolish va mamlakatning global raqamli bozordagi o'rinlarini mustahkamlash imkonini berishi lozim.

BMT Savdo va rivojlanish tashkilotining ta'kidlashicha, raqobatni cheklovchi qonunlarni samarali, shaffof va muvofiqlashtirilgan holda qo'llash raqamli ekotizimlarni inklyuziv, raqobatbardosh va rivojlanishga yo'naltirilganligini ta'minlashning asosiy kaliti hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot global miqyosda tez sur'atlarda o'sib bormoqda. DET hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda dunyo raqamli bozori taxminan 24 trillion dollarga baholanmoqda — bu jahon YAIMining qariyb 21



foizini tashkil etadi va u yillik 8,5 foiz sur'atda o'smoqda, bu esa jahon iqtisodiyoti o'sishidan 3 baravar tezdir. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar allaqachon elektr energiyasi yoki internet singari odatiy qo'llaniladigan texnologiyalarga aylanib ulgurgan bo'lib, ular YAIM o'sishini har yili 0,5–1,5 foiz punktga tezlashtirish imkoniyatiga ega [7]. Ekspertlar baholariga ko'ra, raqamli platformalarning Rossiya Federatsiyasi YAIMidagi ulushi allaqachon 5 foizga yetgan, ushbu segmentning umumiy aylanmasi esa 2023-yilda 6,4 trillion rubldan oshgan. Elektron tijorat eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida 2024-yilda 41 foiz o'sishni ko'rsatdi, raqamli xizmatlar bozori esa prognozlarga ko'ra 30 foizgacha kengaygan [8]. Mazkur yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, xorijiy ekspert va konsultantlar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Xitoy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasi (CAICT) va davlatimizning mas'ul idoralari bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar natijasida "O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotini 2030-yilgacha rivojlantirish rejasi" hisoboti ishlab chiqildi. Hisobotda O'zbekiston raqamli iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari raqamli infratuzilma, sohalarni raqamlashtirish, raqamli boshqaruv va raqamli iste'dodlar kabi beshta asosiy yo'nalish kesimida chuqur tahlil qilingan. Mazkur tahlillarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyoti 2021–2023-yillar davomida yillik o'rtacha 26,5 foizga o'sgan bo'lib, raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi deyarli 9 foizni tashkil etgan [9].

Shuningdek, raqamlashtirish, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari O'zbekiston iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallab bormoqda, ular nafaqat biznesni, balki millionlab insonlarning kundalik hayotini ham o'zgartirmoqda. Ularning ta'siri chakana savdo va moliyaviy xizmatlardan tortib transport, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi turli sohalarni qamrab olmoqda. So'nggi yillarda platforma iqtisodiyotining o'sishi sezilarli darajada tezlashdi, bunga global integratsiya, texnologik innovatsiyalar, iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlar hamda biznesning raqamlashtirilishi sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–dekabr oylarida (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 79,5 trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yil bilan solishtirilganda 39,8 foizga oshdi. Ma'lumot uchun: 2024-yilda xizmatlar hajmi 56,9 trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020-yil bilan solishtirilganda 2025-yilda 5 baravarga o'sgan (1-jadval).

1-jadval. Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi<sup>1</sup>

Hududlar nomi	Yillar kesimida (trln. so'm)						O'sish, foizda	
	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2024 yilga nisbatan	2020 yilga nisbatan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,4	0,5	0,6	0,8	1,0	1,4	143,5	323,8
Andijon viloyati	0,6	0,7	0,9	1,1	1,4	1,8	127,5	286,1
Buxoro viloyati	0,5	0,5	0,7	0,8	1,0	1,3	132,6	288,4
Jizzax viloyati	0,3	0,4	0,4	0,5	0,7	1,1	158,3	410,7
Qashqadaryo viloyati	0,6	0,7	0,9	1,1	1,4	1,8	132,1	313,7
Navoiy viloyati	0,3	0,3	0,4	0,5	0,7	1,0	142,8	342,2
Namangan viloyati	0,5	0,6	0,8	1,0	1,2	1,6	134,6	293,2
Samarqand viloyati	0,8	0,9	1,2	1,5	2,0	2,8	138,1	349,4
Surxondaryo viloyati	0,4	0,5	0,7	0,9	1,1	1,4	132,4	325,6
Sirdaryo viloyati	0,2	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	132,4	298,3
Toshkent viloyati	0,6	0,8	1,0	1,3	1,8	2,6	141,3	443,2
Farg'ona viloyati	0,9	1,1	1,4	1,7	2,1	2,8	134,8	308,0
Xorazm viloyati	0,4	0,4	0,6	0,7	1,1	1,5	139,2	423,6
Toshkent shahri	9,4	12,6	18,0	27,4	41,0	57,8	141,0	615,7
O'zbekiston Respublikasi	15,9	20,4	27,9	39,7	56,9	79,5	139,8	501,1

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 57,8 trln so'mni tashkil etib, 2024-yil bilan solishtirganda 16,8 trln so'mga (41 %) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajm Farg'ona va Samarqand (2,8 trln so'mdan) hamda Toshkent (2,6 trln so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

1 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Ushbu xizmatning rivojlanishi raqamli bozorlarning kengayishiga xizmat qiladi, iqtisodiyotning raqamlashtirilishini tezlashtiradi hamda biznes va iste'molchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida, raqamlashtirish innovatsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga faol investitsiya kiritishni rag'batlantiradi. Sun'iy intellekt, logistikani avtomatlashtirish kompaniyalarga biznes jarayonlari samaradorligini oshirish va iste'molchilarga yanada qulay hamda manfaatli xizmatlar taklif etish imkonini beradi.

Raqamli ekotizimni rivojlantirishda platformalarning hamkorlari — taksi haydovchilari, kurerlar, buyurtmalarni topshirish punktlari operatorlari, sotuvchilar va bozorning boshqa ishtirokchilari — muhim rol o'ynaydi. Ularning platformalar bilan o'zaro hamkorligi yangi ish o'rinlarini yaratishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga va millionlab insonlar uchun tovarlar hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yaqin kelajakda mamlakatimiz uchun asosiy texnologik trendlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Fintex va raqamli to'lovlarni rivojlantirish. Platformalar o'z to'lov xizmatlarini integratsiya qilib, foydalanuvchilar uchun qulay va xavfsiz moliyaviy yechimlarni yaratadi. Endi mijozga turli servislar orasida almashishi shart emas — barcha moliyaviy operatsiyalarni bir necha klikda, bir joyda amalga oshirish mumkin. Bu katta vaqtni tejaydi va to'lovlarni yanada qulay hamda shaffof qiladi. Biroq, moliyaviy xizmatlar sohasida o'z pozitsiyalarini mustahkamlay borgan sari, raqamli platformalar bozorda mustaqil ishtirokchilarga aylanib, to'lovlar, kreditlash, investitsiyalar va sug'urta kabi yo'nalishlarni o'zlashtirmoqda.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar. Alohida e'tiborga sazovor jihat — generativ sun'iy intellekt bo'lib, u kontent yaratish, mijozlarga xizmatni avtomatlashtirish va personallashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Biroq, uning rivojlanishi etika, algoritmlar shaffofligi va ma'lumotlar himoyasi kabi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Avtomatlashtirish va robotlashtirish. Buyurtmalarni boshqarish, ombor logistikasi va mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali joriy etish operatsion xarajatlarni qisqartiradi va buyurtmalarni bajarishni tezlashtiradi. Robotlashtirilgan omborlar, avtonom kurer xizmatlari va intellektual yetkazib berish tizimlari yaqin kelajakda hayotning bir qismiga aylanishi mumkin. Robototexnika rivojlanishi muhandislardan va algoritmlar ishlab chiquvchilaridan tortib, avtomatlashtirilgan tizim operatorlari va ma'lumotlar tahlili bo'yicha mutaxassislargacha yangi kasblar talabini shakllantiradi. Shu tariqa, avtomatlashtirish nafaqat biznes jarayonlarini optimallashtiradi, balki mehnat bozorini ham transformatsiya qiladi, inson va texnologiya o'rtasida yangi o'zaro aloqalarni yaratadi.

Global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida raqamli platformalar barqaror rivojlanishning drayverlariga aylanmoqda, biznes yuritish uchun yanada qulay va moslashuvchan shart-sharoitlarni ta'minlab, mehnat bozori chegaralarini kengaytirmoqda hamda hududlar rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Biroq, afzalliklar bilan bir qatorda, ularning jadal rivojlanishi tartibga solish, soliqqa tortish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan platformalar faoliyatini tartibga solish va ekotizimning barcha ishtirokchilari — iste'molchilar, biznes va davlatni himoya qilishga qaratilgan regulyativ choralarga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Biroq, asosiy savol shundaki — tartibga solish zarurati va ortiqcha nazorat xavfi o'rtasida qanday qilib muvozanatga erishish mumkin?

O'zbekistonda raqamli platformalar uchun huquqiy bazani yaratish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023 yildagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RBQ-850-son<sup>2</sup> Qonuniga "raqamli platforma" tushunchasining kiritilishi [11] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 256-son<sup>3</sup> qarorining 2-ilovasi bilan Raqamli platforma operatorining ustun mavqeini va ustun muzokara kuchini e'tirof etish hamda raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanishi bu yo'nalishdagi muhim qadamlar hisoblanadi [12]. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan mazkur Nizomga asosan 8 ta xo'jalik yurituvchi subyekt 5 ta shakldagi raqamli platformalar bo'yicha ustun mavqega ega deb e'tirof etildi.

Mazkur yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bir qator bahsli, xususan, turli xil platformalarni tartibga solishda differensial yondashuv zarurligi bilan bog'liq masalalar mavjud. Masalaning murakkabligi shundaki, universal yondashuvni hamisha ham qo'llab bo'lmaydi. Masalan, marketpleyslar, moliyaviy xizmatlar, ta'lim platformalari va yetkazib berish xizmatlari turli biznes modellari asosida faoliyat yuritadi va alohida normalarni talab qiladi. Barcha platformalarga yagona qoidalarni qo'llashga urinish esa sohaviy xususiyatlarni inobatga olmaydigan, moslashuvchan va samarali bo'lmagan normalarni yaratish xavfini keltirib chiqaradi. Natijada, bu biznesning rivojlanishini cheklashi, innovatsiyalar sur'atini sekinlashtirishi va bozorning moslashuvchanligini pasaytirishi mumkin.

2 <https://lex.uz/docs/-6518381>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-6907023>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli platformalarning kelajagi nafaqat tartibga solish choralaridan, balki texnologik jihatlardan ham kelib chiqadi. Innovatsion yechimlar platformalarga biznes jarayonlarini optimallashtirish, logistika samaradorligini oshirish, foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabatni personallashtirish imkonini bersa-da, bir vaqtning o'zida yangi chaqiriqlar ham yaratadi.

O'zbekistonda raqamli platformalarning kelajagi texnologik, iqtisodiy va tartibga solish omillari kombinatsiyasiga hamda davlat tomonidan tartibga solish va biznes yuritish erkinligi o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Optimal yondashuv platforma biznesining barcha ishtirokchilari manfaatlarini inobatga olishi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishi, shuningdek, innovatsiyalar va barqaror rivojlanish uchun sharoit yaratishi zarur.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rag'batlantirish, innovatsiyalar sur'atini oshirish va raqamlashtirishdan olinadigan nafning adolatli taqsimlanishini ta'minlash maqsadida raqamli platformalarni tartibga solishda qat'iy va samarali raqobat mexanizmlarini qo'llash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlash raqamli iqtisodiyotni rag'batlantirib, innovatsiyalar sur'atini oshiradi va raqamlashtirishdan olinadigan nafning adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. Raqamli platformalarni tartibga solishda sohaviy xususiyatlardan kelib chiqqan holda differensial yondashuvni joriy etish, ya'ni marketpleys, fintex, logistika va ta'lim platformalari uchun alohida normalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida raqamli platformalarning bozordagi ustun mavqeini aniqlash va monitoring qilishning shaffof mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, ayniqsa sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik yo'nalishlarida ta'lim dasturlarini rivojlantirish lozim.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda raqamli platformalar faoliyatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ular uchun shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/5030957>
2. Молия ва рақамли технологиялар соҳасидаги янги ташаббуслар тақдими. 2026 йил Тошкен. <https://president.uz/uz/lists/view/9048>
3. Tirole, J. Market Failures and Public Policy. Nobel Prize Lecture. 2014.
4. Schumpeter, J. A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers. 1942.
5. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press. 1990.
6. БМТ савдо ва ривожланишни бошқаруви (ЮНКТАД), Digital Policy Alert маълумотлари. [https://unctad.org/news/highly-concentrated-digital-markets-put-consumers-risk-heres-how-change-course?utm\\_source](https://unctad.org/news/highly-concentrated-digital-markets-put-consumers-risk-heres-how-change-course?utm_source)
7. Digital Economy Trends 2025. <https://dco.org/digital-economy-trends-2025-report/>
8. Цифровые платформы в экономике: масштаб и влияние. А. Шаронов - председатель Наб.совета Ассоциации цифровых платформ
9. Рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улуши ортмоқда. 2025 йил декабрь Тошкен. <https://www.xabar.uz/tehnologiya/raqamli-iqtisodiyotning-mamlakat-yalpi>
10. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари. <https://siat.stat.uz/reports-filed/4456/table-data>
11. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023 yildagi "Raqobat to'g'risida”gi O'RB-850-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/6518381>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 256-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/6907023>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)